


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib



## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8 123,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **9,2 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 057,8** mlrd. so'mni (**16,8 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7 065,6** mlrd. so'mni (**14,5 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 433,8** mlrd. so'mni (**40,3 %** ga oshdi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






## UMUMIY MA'LUMOT

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **8 123,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **109,2** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida barcha shahar va tumanlarda o'sish sur'ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **87,0** % va yirik korxonalar hissasiga **12,0** % to'g'ri keldi.




## ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **35,0** % ulush bilan **2 841,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **1,8** % ulush bilan **147,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, **7 065,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **14,5 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,0 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,7 %), Yangiariq (99,4 %), Bog'ot (99,2 %) va Shovot (98,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi.



**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>8 123 361,7</b>	<b>109,2</b>	<b>1 057 772,7</b>	<b>83,2</b>	<b>7 065 588,9</b>	<b>114,5</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	2 841 949,6	103,2	856 718,0	80,1	1 985 231,6	117,8
Xiva	318 568,2	111,4	17 879,9	86,3	300 688,3	113,3
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	450 439,3	118,2	3 603,1	22,0	446 836,2	122,6
Gurlan	674 252,1	116,9	19 859,6	2,0 m.	654 392,4	115,4
Qo'shko'pir	339 630,8	105,7	17 459,0	113,0	322 171,7	105,3
Urganch	754 970,5	105,5	52 343,1	124,5	702 627,4	104,4
Hazorasp	825 322,8	116,0	44 507,9	2,2m.	780 814,9	113,0
Tuproqqal'a	147 682,7	112,6	413,3	2,0 m.	147 269,4	112,4
Xonqa	496 408,3	113,8	19 891,6	43,4	476 516,7	122,0
Xiva	223 490,4	108,6	4 010,9	107,6	219 479,5	108,6
Shovot	498 119,9	117,0	8 625,5	46,2	489 494,3	120,2
Yangiariq	338 020,3	106,9	2 007,1	29,0	336 013,2	108,7
Yangibozor	214 507,0	119,3	10 453,8	4,8 m.	204 053,2	114,8



### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **16,8 %** ga kamaydi va **1 057,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **13,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7 065,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **14,5 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,0 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,7 %), Yangiariq (99,4 %) va Bog'ot (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,0% ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (30,1 %), Urganch tumanida (6,9 %) va Xiva shahrida (5,6 %) kuzatildi.





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 266,7** ming so'mni (2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **7,5 %** ga oshdi) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Yangibozor (117,8 %), Bog'ot (116,2 %), Gurlan (115,3 %), Shovot (115,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (16 532,3 ming so'm), Gurlan (4 486,0 ming so'm) va Hazorasp (4 178,8 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


## XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




## XORAZM VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI 2021- yil yanvar-oktabr

	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	<b>4 266,7</b>	<b>107,5</b>
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	19 532,3	102,2
Xiva	3 385,4	109,5
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	2 687,6	116,2
Gurlan	4 486,0	115,3
Qo'shko'pir	1 947,4	104,4
Urganch	3 722,7	103,5
Hazorasp	4 178,8	113,7
Tuproqqal'a	2 670,6	112,4
Xonqa	2 621,0	112,0
Xiva	1 509,1	106,8
Shovot	2 886,0	115,2
Yangiariq	2 869,4	105,4
Yangibozor	2 423,8	117,8

**Asosiy tarkib, foizda**




**Dehqon bozorlari**




**Chorva (parranda) bozorlari**


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 433,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **40,3** % ga o'sdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **757,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 117,1 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **675,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 180,4 %) tashkil etdi.



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 757,9 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 675,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1433,8</b>	<b>140,3</b>	<b>757,9</b>	<b>117,1</b>	<b>675,9</b>	<b>180,4</b>
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch</b>	319,5	149,0	239,5	149,9	79,9	146,3
<b>Xiva</b>	34,5	157,1	34,3	156,1	0,2	-
<i>tumanlar:</i>						
<b>Bog'ot</b>	200,0	139,6	39,2	92,9	160,7	159,2
<b>Gurlan</b>	148,3	194,6	44,4	103,0	103,9	3,1
<b>Qo'shko'pir</b>	89,1	85,8	60,9	86,8	28,2	83,7
<b>Urganch</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Hazorasp</b>	156,8	156,0	81,7	126,8	75,1	2,1
<b>Tuproqqal'a</b>	26,8	128,6	22,8	124,1	4,0	161,9
<b>Xonqa</b>	139,0	175,0	107,2	157,0	31,8	2,8 m.
<b>Xiva</b>	-	-	-	-	-	-
<b>Shovot</b>	227,0	136,8	70,0	75,4	157,0	2,1 m.
<b>Yangiariq</b>	46,8	81,9	28,3	72,2	18,5	103,2
<b>Yangibozor</b>	46,0	120,1	29,5	110,4	16,5	142,7

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
DEHQON BOZORLARI**



8,0  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



312,5  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



50,3  
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

102,9  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



16,3  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

37,8  
mlrd. so'm



**Tuxum**

120,0  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)**

34,2  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) **11** ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **757,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**312,5** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

9,8  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

57,8  
mlrd. so'm




**Tovuq go'shti**

8,4  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)**


2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning 11 ta (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 675,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 623,7 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 45,8 mlrd. so'mni, parrandalar 6,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2021- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,0 %** ni tashkil etib, **83,7** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2,0 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **99,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**




	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>83 678,3</b>	<b>102,0</b>	<b>634,1</b>	<b>8,9</b>	<b>83 044,3</b>	<b>110,8</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	35 749,3	100,1			35 749,3	106,9
Xiva	2 536,4	110,7			2 536,4	110,7
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	3 552,1	106,1			3 552,1	106,1
Gurlan	2 506,7	108,2			2 506,7	108,2
Qo‘shko‘pir	1 485,8	107,6			1 485,8	107,6
Urganch	12 784,0	99,4	634,1	106,4	12 150,0	99,0
Hazorasp	6 819,1	105,8			6 819,1	105,8
Tuproqqal‘a	1 348,9	106,3			1 348,9	106,3
Xonqa	3 042,6	109,4			3 042,6	109,4
Xiva	2 192,0	109,9			2 192,0	109,9
Shovot	8 008,6	96,5			8 008,6	197,9
Yangiariq	1 475,2	106,2			1 475,2	106,2
Yangibozor	2 177,5	109,9			2 177,5	109,9

**Asosiy tarkib, foizda**




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 463,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **1,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **585,4** mlrd. so'mni (**16,7%** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 878,2** mlrd. so'mni (**8,4 %** ga ko'payish) tashkil etdi.


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Gurlan tumani (404,8 m.), Bog'ot tumani (323,4 m.), Yangibozor tumani (9,1 m.) va Xonqa tumani (4,4 m.) da kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Gurlan (6,3 m.), Bog'ot (3,6 m.) va Yangiariq (150,8 %) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 463 613,5</b>	<b>101,1</b>	<b>585 419,8</b>	<b>83,3</b>	<b>1 878 193,7</b>	<b>108,4</b>
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 151 112,9	96,8	173 924,0	62,1	977 188,9	107,5
Xiva	90 126,1	103,1	734,4	115,3	89 391,7	103,0
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	61 348,9	3,6 m.	39 498,5	323,4 m.	21 850,5	130,6
Gurlan	106 521,3	6,3 m.	73 329,7	404,8 m.	33 191,7	198,5
Qo'shko'pir	15 824,3	139,5	9,8	7,0	15 814,5	141,2
Urganch	555 972,0	110,4	236 567,2	117,3	319 404,8	105,8
Hazorasp	40 071,7	136,7	439,8	191,6	39 631,9	136,2
Tuproqqal'a	12 991,1	6,0	27,3	0,0	12 963,8	118,4
Xonqa	166 693,0	143,1	59 045,1	4,4 m.	107 647,9	104,5
Xiva	151 554,2	102,3	237,0	98,2	151 317,1	102,3
Shovot	38 954,3	103,3	51,6	135,7	38 902,7	103,3
Yangiariq	26 793,8	150,8	256,1	103,3	26 537,6	151,5
Yangibozor	45 649,9	103,8	1 299,4	9,1 m.	44 350,5	101,1

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, **1 878,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **8,4 %** ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **76,2 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Qo'shko'pir (99,9 %), Shovot (99,9 %), Xiva (99,8 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Gurlan tumani (31,2 %) va Bog'ot tumaniga (35,6 %) to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy  
faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.: (62) 224-65-09